

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“TARMOQLAR IQTISODIYOTI”
KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 338:6II2.15.7

KATAYEV FIRDAVS ABDUKARIMOVICH

IQTISODIYOT TARMOQLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
KENG JORIY ETISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI VA ULARDAN
FOYDALANISH

70310102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
dots. Kasimov A.

Toshkent – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

37- -sonli bayonnoma «26» 04 2023 y.

Ilmiy rahbar:


A.Kasimov


imzo

18.05.23
sana

Magistr:


F.Kataev


imzo

18.05.2023
sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil "18" 05
№ 2/09 raqami bilan ro'yxatga olingan

"Himoyaga ruxsat etiladi"

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasii
mudiri dots. I.Xotamov 

"3" "05" 2023 yil

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida
2023 yil "18" 05 soat "10⁰⁰" da bo'ladi

ANNOTATSIYA

Mazkur magistrlik dissertatsiyasida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlari, bu sohada amalga oshirilayotgan vazifalar hamda sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotlar jarayonida iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari keng o'rganilgan va ushu xorij tajribalaridan O'zbekiston sharoitida foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish asosida iqtisodiyot tarmoqlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda mualliflik yondoshuvlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, axborot texnologiyalari, xalqaro tajribalar.

Summary

In this master's thesis, the characteristics of the development of the digital economy in our country, the tasks performed in this field, and the priority directions of the development of the field are analyzed. In the course of research, the experiences of foreign countries on the widespread introduction of digital technologies in economic sectors have been widely studied, and proposals have been developed for the use of these foreign experiences in the conditions of Uzbekistan.

Also, based on the effective use of digital technologies in the conditions of the digital economy, practical recommendations for the further development and improvement of economic sectors were developed and authorial approaches were put forward.

Key words: digital economy, digital technologies, information technologies, international experiences.

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
Mundarija	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	7
Keltirilgan rasmlar ro'yxati	8
Keltirilgan qisqartmalar	9
KIRISH	10
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	11
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari	12
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	12
Tadqiqotning ob'yekti va predmeti	13
Tadqiqotning ilmiy yangiligi	13
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	14
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	15
1.1. Kirish	15
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi	16
1.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	24
1.4. Xulosa	32
II BOB. METODOLOGIYA	33
2.1. Tadqiqot dizayni	33
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	33
2.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	33

2.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	34
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	34
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	35
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	36
3.1. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	36
3.2. Raqamli iqtisodiyot tizimlaridan samarali foydalanishning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri tahlili	41
3.3. Raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha xorij tajribasi va undan O'zbekiston sharoitida foydalanish yo'llari	45
3.4. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlari	51
3.5. Tahlillardan olingan natijalar sharhi	60
XULOSA	62
Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	62
Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	68
Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	72

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi "Raqamli Toshkent" kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida beshinchi yo'nalish sifatida 25-maqsadi sifatida "Raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish" deb belgilangan¹. Jumladan:

Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy obyektlarni hamda magistral avtomobil yo'llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish;

Iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohasida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026 yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasi. 22.12.2022. <https://review.uz>